

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

MUMTOZ DOSTONCHILIKDA HOTAMI TOY SYUJETI

Dildoraxon Abdullayeva

*Andijon davlat universiteti professori v.b.,
filologiya fanlari doktori*

Annotatsiya: Maqolada mumtoz adabiyotda, dostonlarda keng ishlangan Hotami Toy syujeti va uning Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy, Xoja, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Sayyid Qosimiy asarlaridagi talqini haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: mumtoz dostonchilik, “Xamsa” syujeti, Hotami Toy hikoyati, saxovat ramzi, A.Navoiy dostonida Hotami Toy syujeti, an'anaviy obrazlar.

Аннотация: В статье анализируется сюжет Хатами Тай, широко используемый в восточной классической литературе, эпосе, и его интерпретации в произведениях Алишера Навои, Низами Гянджеви, Ходжи, Сайфи Сарой, Хайдара Хоразми, Сайида Касими.

Ключевые слова: классический эпос, сюжет «Хамса», история Хатами Тай, символ щедрости, сюжет Хатами Тай в эпосе А.Навои, традиционные образы.

Annotation: The article analyzes the plot of Khatami Tai, widely used in oriental classical literature, epic, and its interpretation in the works of Alisher Navoi, Nizami Ganjavi, Khoja, Saifi Sarai, Haydar Khorazmi, Sayid Qasimi.

Key words: classical epic, the plot of “Khamsa”, the story of Khatami Tai, the symbol of generosity, the plot of Khatami Tai in the epic of A. Navoi, traditional images.

Hazrat Alisher Navoiy asarlarida sharqona motiv va syujetlarning yetakchilik qilishi uning xalq og‘zaki ijodidan ta’sir olganligi, ustozlari an’analaring munosib davomchisi bo‘lganligidan dalolat beradi. Xamsachilik an’analari asosida yaratilgan Alisher Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”da bir necha o‘nlab voqeiy hikoyatlar maqolatlardan so‘ng keltiriladi. Maqolatlarda shoirning falsafiy, ijtimoiy, diniy tasavvufiy qarashlari beriladi, bu fikr g‘oyalarning misoli – illyustratsiyasi sifatida esa sharq xalqlarida tarqalgan badiiy, diniy va boshqa hikoyatlar bayon etiladi. Mazkur hikoyatlarni alohida alohida asar sifatida ham, shuningdek dostonni yaxlit holga keltiruvchi qismlar sifatida ham anglash mumkin.

“Hayrat ul-abror”da an’anaviy tarzdagi majoziy masallar hamda masal tipidagi asarlar ham uchraydi. Shoirning maqolatlarida o‘git, pand, ibratli fikrlar keltiriladi. Bunday fikrlarni tezis deb ataydigan bo‘lsak, ularning amaliy jihatdan isboti sifatida masal va masalnamo asarlar bayon qilinadi.

Ma’lumki, har qanday badiiy asar estetik-etik funksiyani bajarishi, o‘quvchida badiiy zavq uyg‘ota olishi zarur. Ana shu estetik-etik funksiyani bajarish dostonda aynan shu masal, hikoyatlar orqali bajariladi. Mantiqan esa ibratli fikrlarning tasdig‘i mavjud bo‘lsagina, uning ta’sirchanligi ham bo‘ladi. Demak, didaktik yo‘nalishdagi dostonlar kompozitsiyasidagi masal yoxud masalnamo asarlarning o‘rni qat’iy va ahamiyatlidir.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“Hayrat ul-abror”dagi syujet va motivlar sharq hikoyatlarida avvaldan bo‘lganligi ularning shakllanish ildizlari, genezisi qadim davrlarga borib taqalishidan dalolat beradi. “Xamsa”ning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”da Iskandar, No‘siravon, Bahrom, Hotami Toyi, Zoli zar, Jamshid, Sulaymon, Sulton Mahmud kabi tarixiy va afsonaviy obrazlar, ular bilan bog‘liq voqealar sharq hikoyachiligidagi avvaldan mavjud bo‘lgan. Mazkur obrazlar adabiyotshunoslar tomonidan “mangu obrazlar” deb nomlangan edi: “Mangu obrazlar insonga xos muhim ijobiy yoki salbiy xislatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Jahon adabiyotida bunday obrazlarga Hotam Toyi, Nasriddin Afandi, Agasfer, Don Kixot, Hamlet misol bo‘la oladi. Mangu obrazlar bir muallifdan boshqa muallifga o‘tish xususiyatiga ega bo‘lib, har safar yangidan yangi qirralari ochiladi”. [4.7]

“Tarixiy voqealar va mashhur shaxslar haqida paydo bo‘lgan rivoyatlar asosan muayyan shaxs faoliyati, donishmandligi hamda qahramonliklari haqida hikoya qiladi, tarixiy shaxs ega bo‘lgan fazilat va ideal axloq normalarini tashviq etadi”. [8.30-31]

Sharq hikoyachiligidagi ibrat, o‘git, pand ustuvor bo‘lganidek, “Hayrat ul-abror” asarida ham didaktik yo‘nalish alohida ahamiyatga ega. Alisher Navoiy dostonida karam, sahovat,adolat, raiyatparvarlik, sadoqat, vafo, oljanoblik kabi fazilatlar ulug‘lanadi. U.Jo‘raqulov to‘g‘ri ta’kidlaganiday: “Maqolatlarda Qur’oni karimdagagi zidlovchi uslubda bayon etilgan fazilatu qusurlar, ezguligu yovuzliklar, ulug‘ligu tubanliklar hikoyatlar vositasida reallashtirib dalillanadi”. [3.141] Adabiyotshunos obrazlar tizimida bajaradigan badiiy funksiyasi, muallif nuqtai nazarini ifodalashi jihatidan tarixiy obrazlarni uch guruhga ajratgan edi: “a) Ideal tarixiy obrazlar. Bunday obrazlar sirasiga Payg‘ambarlar, chahoryor, sahabalar, avliyo zotlar obrazlari kiradi va ular boshqa tip obrazlardan zamon nuqtai nazaridan ideal o‘tmishni aks ettirishi; muallif uchun etik tayanch, estetik ideal, ibrat manbai maqomida turishi; “Xamsa” badiiy kontekstida tarixiy-badiiy kategoriyalarni sintezlovchi muhim vosita bo‘lib kelishi va asar xronotop maydonida ayni funksiyani bajarishga yo‘naltirilishi bilan farq qiladi; b) real tarixiy obrazlar. Navoiy ijodiy muloqotga kirishgan, tajribalaridan bahramand bo‘lgan, bevosita tajriba almashgan, real munosabatda bo‘lgan tarixiy shaxslar kiradi. Real tarixiy obrazlarning birinchi guruhini Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiylar; ikkinchi guruhini Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Badiuzzamon, Shohg‘arib Bahodir singari hukmdorlar; uchinchi guruhini esa “Xamsa”da o‘z semantik-struktural mohiyatiga ko‘ra umumlashtirilgan (yoki tipiklashtirilgan) “zolim hukmdor”, “riyoyi xirqapo‘shlar”, “jahl mayining durdkashlari”, “xudnamo muxannasvashlar” va h.k. obrazlari tashkil etadi; v) metaforiklashtirilgan tarixiy obrazlar. Ayni guruhga oid obrazlar konkret tarixiy asosga ega bo‘lsa ham, asar obrazlar tizimida metaforiklashtirilgan shaklda kuzatiladi.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Bunga muallif, homiy yoki yo‘lboshchi, odil shoh va zolim shoh obrazlari kiradi”. [2.27-28] Darhaqiqat, “Hayrat ul-abror”da ushbu obrazlarning barchasi mavjud bo‘lib, ular orqali shoirning g‘oyaviy niyati ifodalangan.

“Hayrat ul-abror”ning uchinchini maqolatida keltirilgan “Shoh G‘oziy” hikoyatidaadolatli hukmdor g‘oyasi ilgari suriladi. Beva kampir shohdan o‘z o‘g‘lining xunini talab qiladi, uning o‘g‘li jangda halok bo‘lgan edi. Ikkalasi qoziga boradilar, Qozi kampirning xohishi bajarilishi kerakligini hukm qiladi. Shoh kampirning qo‘liga qilich va oltinu kumush berib, ikkisidan birini tanlashini aytadi.

Dedi: “Qasos aylasang ollingda bosh.

Siyymi ol, gar g‘arazingdur maosh.

Men edim ul amrda beixtiyor,

Har ne sen etsang manga ne ixtiyor”. [1.131]

Kampir shohningadolati va to‘g‘riligiga tan berib, siymu zarni tanlagani sabab uni xalq “Zolu zar” deb ataydilar.

Xojaning “Gulzor” asarida yuqoridagi syujetga o‘xhash hikoyat bor. Sulton Malikshohning qullari bir beva ayolning sigirini o‘g‘irlab so‘yib yeyishadi. Ayol Sulton o‘tadigan Zindarud ko‘prigi oldiga kelib, “mengaadolat qil, bo‘lmasa sirot ko‘prigida seni tutaman”, deydi. Sulton ayolning da‘vosini eshitgach, o‘g‘irlangan sigir evaziga o‘ntasini beray, deydi. Ayol rozi bo‘lmaydi, unga yigirma, keyin saksonta sigir taklif qilishadi. Sulton ayolning xohishini bajarish uchun qullarini toptirib kelib, ularni jallodga topshiradi. Vaqt yetib Sultonning qazosi keladi. Bundan xabar topgan ayol faryod qilib: “Ey xudoyo, Sulton Malikshoh manga adl qilib erdi, anga rahmat qilg‘il”, deydi. Shu kechada Isfahon aholisining barchasi bir xil tush ko‘radi: Sulton Malikshoh jannatda yurardi. Undan, qaysi amaling uchun jannatga kirding? deb so‘rasalar, bir qari ayolgaadolat qilganim uchun, xudo meni bu davlatga yetkazdi, deb javob beradi. [9. 264-265]

Alisher Navoiyning asaridaadolat qaror topganligi, podshoningadolat tarafdoi ekani bayon qilinsa, Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” dostonidagi “Kimsasiz kampir va Sulton Sanjar” hikoyatidagi sultonadolatsiz ekanligi tasvirlanadi, shoiradolatsiz podsholarga nasihat qilish uchun shu hikoyatni keltiradi. Ushbu hikoyat “Podshoning raiyatga husni rioyati bayonida” deb nomlangan, u dostonning to‘rtinchi maqolatida berilgan. Voqeadan ma’lum bo‘lishicha, kimsasiz kampir Sulton Sanjarning yo‘lidan chiqib, unga arzu shikoyat qiladi. Kampirning uyiga kechasi mirshablar kirib uni urib tepganlari, ko‘cha boshidagi falonchini kim o‘ldirgan, sen bilasan deb qiyaganlarini so‘zlab beradi. Mirshablar kampirning kulbasini tintiganlari, ularning bari mast bo‘lganlarini aytadi. Dostonda Sulton Sanjarning javobi keltirilmagan, shoirning to‘g‘ridan to‘g‘ri nasihatga o‘tib ketishi va “Shohi Xurosonki Sanjar edi, Pandu

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

nasihat so‘ziga kar edi” misralaridan Sanjarning el ishiga, xalqning arzu dodiga qulq solmaydigan johil hukmdor ekani ayon bo‘ladi. [7.117]

Hotami Toyi hikoyati Sharq adabiyotida keng tarqalgan syujet hisoblanadi. Ushbu syujetga juda ko‘p adiblar murojaat etganlar. Hotami Toyi haqidagi hikoyatlar ham “Xamsa” dostonlari tarkibida saxovat, saxiylik, karam mavzusidagi maqolatlarda muallifning hayotiy-falsafiy qarashlarini tasdiqlash, dalillash uchun keltiriladi. Hotami Toy manbalarda ko‘rsatilishicha, arablarning Tay qabilasining boshlig‘i va shoir bo‘lgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, muslimon bo‘lmagan. Shunday bo‘lsa-da, (Hadisi sharifda keltirilishicha) Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) uning saxovatini ma’qullaganlar

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi beshinchi maqolat “Karam vasfida” qismida Hotami Toyi hikoyati keltiriladi. Hotami Toyidan “O‘zingdan saxiyroq insonni ko‘rganmisan?” deb so‘raydilar. U aytadiki: “Bir kuni butun dasht aholisini yig‘ib yuzlab tuya, qo‘ylar so‘yib ziyofat berar edim. Havodan nafas olib aylangani chiqsam, bir chol yelkasida o‘tin ko‘tarib zo‘rg‘a ketar edi. Unga, eshitmadingmi, Hotam ziyofat beryapti, bu mashaqqatni tashlab, u yerga borsang-chi, dedim. Chol esa, o‘z mehnatim bilan topgan ozgina tangam birovlarning bergen oltinlaridan ko‘ra afzal, beminnatdir, dedi. Shu chol mendan ham saxiyroqdir”. [1.152]

Sayfi Saroyining dostonida “Hikoyat” sarlavhasi bilan keltirilgan bu syujet juda ixcham hajmga ega bo‘lib, savol-javob asosiga qurilgan. Bunday kompozitsiya dostondagi boshqa masallarga ham xos bo‘lib, voqeа qismidan so‘ng maqol, aforizm asosidagi she‘r qissadan hissa o‘rnida beriladi. Hikoyatga ko‘ra Hotami Toyidan “Jahonda sendan ulug‘ himmatli ko‘rganing yo eshitganing bormi?” deb so‘raydilar. Hotami Toyi bir kuni qirq tuya so‘yib arab beklarini mehmon qilgani, ziyofat vaqtida tashqariga chiqqanida yuk ko‘targan bir kishini ko‘rgani, unga “Hotami Toyi ziyofat beryapti, bormaysizmi?” deganda u:

Aningkim luqmasi kasb o ‘tmagidur,

Ko ‘tarmas ul bu Hotam minnatin

deya javob bergani va bu kishi o‘zidan ham ulug‘ himmatli kishi ekanini aytadi. [7.240]

Dostonda saxovat, karam ramziga aylangan Hotami Toyi hikoyatiga o‘xshash yana bir misol uchraydi. Bir faqir kishi yo‘qsillik o‘tida kuyib hirqasini tikib o‘tirib: “Quri o‘tmak oshab hirqa kiyarga chun qanoatman, Xaloyiq minnatin bori ko‘tarmakdan farog‘atman”, baytini hirgoyi qilarkan, bir kishi unga “Falon xoja karam qo‘lini cho‘zib fuqaroning hojatini chiqarmoqda. Siz ham boring”, deydi. U: “Tek turg‘ilkim, bu yo‘qsulluq o‘tina kuymak andin yaxshiroqkim, bir kishi qotinda (qoshida, huzurida) borib hojat tilaginch” deb javob beradi. [7.235]

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” (“Gulshan ul-asror”) dostonida karam va saxovat mavzusida so‘zlar ekan, shoir Hotami Toyi hikoyatini qalamga oladi. Dostonda bu syujet Hotami Toyi vafotidan keyingi voqealar asosiga qurilgan. Bir arab karvonboshisi Hotami Toyi yashagan joydan o‘tib borayotib shu yerda tunab qolmoqchi bo‘ladilar. Karvondagi bir yigit g‘oyibona Hotami Toyiga “Ey sohibkaram, biz senga mehmonmiz, og‘ir paytda bizga e’tibor qilmaysanmi?” deydi. Karvondagilar bir tuyani so‘yib ovqatlandilar. Yigit esa Hotami Toyiga da’vosini qilaverdi, odamlar “Tilingni tiy, odob saqla” deb aytdilar. Tong otganda uzoqdan bir otliq tuya yetaklagan holda ularning oldilariga keladi. U yetaklagan tuya kecha karvondagilar so‘yib yeganlari bilan bir xil edi. Otliqdan nima maqsadda kelganini so‘raganlarida, uning tushiga Hotam Toy kirgani, “kecha mehmon keldi va mendan saxovat ko‘rsatishimni so‘radi, bir tuyani mehmonning o‘zidan qarz oldim, uni sen tezda qaytar, tongda mehmonlar yo‘lga tushadi”, deb, tuyaning belgilarini aytib, aynan kechagi tuyani topshirishni buyurganini aytadi. [11.228-229] Mazkur hikoyatda “qissadan hissa” qismi mavjud emas. Chunki hikoyatdan avval mav’izada karam, saxovat haqidagi shoirning o‘gitlari ifodalangan. Bu alohida mustaqil yaratilgan masallarning qurilishi, kompozitsiyasi bilan mushtarak hisoblanadi. Nizomiy Ganjaviyning ilk dostonida ham beshinchi maqolatda Hotami Toyi hikoyati mazmuniga yaqin hikoyat keltiriladi. Ganjaviyning inson umri, keksalik, yoshlik, hayot mazmuni haqidagi qarashlari “Keksalik bobida” keltirilib, so‘ngra “G‘ishtchi chol” hikoyati beriladi. Voqeal mazmuni shundan iboratki, bir chol juda keksayib qolgan bo‘lishiga qaramay, tuproqdan g‘isht quyib tirikchilik uchun mehnat qilar edi. Bir kuni o‘siprin yigit cholga: “Bu ishni qo‘ying, yoshlar mehnat qilsin. G‘isht qolipini o‘tga oting, umringizni rohatu farog‘atda o‘tkazing”, deydi. Chol esa: “Menga nasihat qilishga yoshsan. Birovlarning oldida qo‘l cho‘zmayman, shu bois bu mashaqqatga qo‘l cho‘zganman. Birovlardan molu ganj so‘ramayman, qilgan mehnatim orqali nonu rizq topaman”, deydi. [6. 124]

Xojaning “Maqsad ul-atvor” dostonining uchinchi maqolasi “Sulton nekuxoh saxovat bila muhtojlarg‘a inoyat qilib, bemorlarg‘a shafqat birla iloj qiluri bobida” deb nomланади. So‘ngra “tamsil”, ya’ni misol tarzida Hotami Toyi hikoyati keltiriladi. Hotami Toyi saxovatda mashhur edi. Ushbu yurtning podshohi uning bu fazilatini sinash uchun undan sevimli otini xizmatkori orqali so‘rattiradi. Xizmatkor Hotami Toyining uyiga kelib, oqshomda qoladi. Hotami Toyi podshoh xizmatkorini mehmon qilish uchun o‘sha otini so‘yib dasturxonga tortadi. Podshoh xizmatkor so‘z boshlab Hotami Toyidan uning otini hukmdor so‘raganini yetkazadi. Hotami Toyi: “Seni mehmon qilish uchun biror nima topolmay, o‘sha otimni so‘ygan edim. Yeyayotgan go‘shting shu otniki. Agar kelgan zahoting aytganingda o‘sha zahoti otni berar edim.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Seni podshohning elchisi deb otni so‘ydim, podshohdan ham uni ayamas edim-ku!” deydi. Podshoh xizmatkori uning saxovatiga qoyil qolib buni hukmdorga yetkazadi. [10]

Sayyid Qosimiyning “Majma’ ul-axbor” dostonida ham Hotami Toy hikoyati keltiriladi. Shoir karam va saxovat haqidagi dastlab ibratli fikrlar – tezisni, so‘ng bu fikrni isbotlaydigan hikoyatni bayon qiladi. Bu tezis – g‘oyalarda saxovat qilish kimga azaldan bitilgan bo‘lsa, u barcha narsalarini yo‘qsuz (yo‘qsil, kambag‘al) va o‘ksuz (o‘ksigan, ko‘ngli cho‘kkan) kishilarga berish odati bo‘lishi kerakligi aytildi:

*Kimga karam bo‘lsa azaldin nasib,
Andin emas judu saxovat g‘arib.
Har na nasib etsa anga biru bor,
Yo‘qsuzu o‘ksuzga qilur ul nisor.* [5.47]

Shoir ta’kidicha, kim o‘ziga saxovatni odat deb bilsa, u saodatli, baxtlidir. Bunday odamning ma’naviy olami yetuk, ana shu olamning amiri, boshlig‘idir. Tashqi tomondan esa hech narsaga ega bo‘lmagan faqirdir:

*Kimki saxovat bila odat qilur,
Ertavu kech kasbi saodat qilur.
Olami ma’noda bo‘lur ul amir,
Kimki o‘zin ko‘rdi bu yo‘lda faqir.* [5.47]

Mazkur fikrlarni dalillash uchun Yaman podshohi va Hotami Toy haqidagi hikoyat bayon qilinadi. Unga ko‘ra Yaman podshohi xazinadagi barcha boyliklarni xalq uchun sarflar, bundan esa xalq minnatdor bo‘lar ekan. Kunlardan bir kuni podsho o‘zidan ham saxovatliroq Hotami Toy haqida eshitib, darg‘azab bo‘ladi va uni o‘ldirish uchun bir yigitni Toy qabilasiga yuboradi. Yigit manzilga yetganda uni bir kishi qarshi olib, uyiga mehmonga taklif qiladi. Mezbon yigitdan nima maqsadda kelganini so‘raydi, biror mushkul ishi bo‘lsa, “aylayin jon bila” – joni bilan xizmat qilishini aytadi:

*Kim, muni so‘rmoqqa muroding nedur,
Basta ishing bori kushoding erur.
Aylayin jon bila hosil ani,
Mahrami sirring agar etsang mani.* [5.48]

Yigit karam va saxovatda mashhur Hotami Toyni o‘ldirgani kelganini aytadi. Hotami Toy mezbonning o‘zi edi. Yigitning maqsadini eshitgach ham Hotami Toy ahidian qaytmaydi. “Jonni ayamoq” “muruvvatdan emas”ligini aytib, o‘z boshini kesishni aytadi:

*Aydi anga Hotami Toyi: vayig‘,
Bobi muruvvatdin emas, darig‘.*

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*Har naki ko ‘nglung tilasa andoq et,
Qilma tavaqquf boshim kes-da, ket.
Turma dame yo ‘lg ‘a qadam qo ‘y bu dam,
Bilsa xaloyiq senqa etkay alam. [5.48]*

Hotami Toyning so‘zlarini eshitib, yigit mutaassir bo‘ladi, uning haqiqatda karam va saxovatda tengsiz ekanligiga tan beradi, yurtiga qaytib podshoga bo‘lgan voqeani so‘zlab beradi. Yaman podshosi o‘z ishidan pushaymon bo‘lib, Hotami Toy haqiga duo qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz shoirlar o‘z asarlarida Hotami Toy haqidagi bitta syujetga murojaat qilgan bo‘lsalar-da, biroq o‘zları yashab turgan muhit, hayot voqeliklari nuqtai nazaridan yondashib, ijtimoiy hayot manzaralarini ham tasvirlaganlar, umuminsoniy qadriyatlar haqida so‘z yuritganlar.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimov A., Hamroqulov A., Xo‘jaev S. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – B.7.
2. O‘zbek folklori ocherklari. – T., 1989. – B.30-31.
3. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – B.141.
4. Jo‘raqulov U. Alisher Navoiy “Xamsa”sida xronotop poetikasi. Filol. fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2017. – B.27-28.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 7-j. Xamsa. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Fan, 1991. – B.131.
6. Xoja. Gulzor / O‘zbek adabiyoti. 4 jildlik. 3-j. – Toshkent: O‘zadabiynashr, 1959. – B.264-265.
7. Nizomiy Ganjaviy. Maxzan ul-asror. (Tarjimon J.Kamol) – Toshkent: Kamalak, 2016. – B.117.
8. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. “Hayrat ul-abror”. 7-j. – T.: Fan, 1991. – B.152.
9. Sayfi Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. Nashrga tayyorlovchi: N.Davron. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr-ti, 1986. – B.240.
10. www.ziyouz.com. kutubxonasi. Haydar Xorazmiy. Gulshan ul-asror. – B.228-229-b.
11. [n.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) Poshoxoja. Manzura Davlatova. “Maqsad ul-atvor”dan namunalar.
12. Qosimxonov B. S.Qosimiyyning adabiy-didaktik dostonlari. – Toshkent: Fan, 1987. – B.47.